

ALEXANDER FAYNBERG SHE'RIYATIDA HAYOTIY FALSAFA VA RUHIY KECHINMALAR

Ochilova Xurshida Norsaidovna

*O'zbekiston davlat jahon tillari Universiteti xorijiy
til va adabiyoti: ingliz tili fakulteti 2-bosqich talabasi
Xurshidaochilova317@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Aleksandr Faynbergning she'riyatidagi hayotiy falsafa, inson ruhiyati va kechinmalar motivlari tahlil qilinadi. Shoir satrlarida insonning quvonch va qayg'u bilan bo'lgan munosabati, o'tgan vaqtga bo'lgan e'tibor va hayotiy tajribalarni qadrlash ruhiyati badiiy usullar orqali ifodalanadi. Tadqiqot davomida she'rdagi metaforalar, badiiy obrazlar va motivlar o'rganilib, ularning ma'naviy va gumanistik ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: Aleksandr Faynberg, she'riyat, hayot falsafasi, ruhiy kechinmalar, badiiy tahlil.

Annotation. This article analyzes the life philosophy, human psyche and emotional motifs in the poetry of Alexander Feinberg. In the poet's lines, the human relationship with joy and sorrow, attention to the past and the spirit of appreciation of life experiences are expressed through artistic methods. During the research, metaphors, artistic images and motifs in the poem are studied, and their spiritual and humanistic significance is highlighted.

Keywords: Alexander Feinberg, poetry, life philosophy, emotional experiences, artistic analysis.

Аннотация. В данной статье анализируются философия жизни, человеческая психика и эмоциональные мотивы в поэзии Александра Файнберга. В строках поэта отношение человека к радости и печали, внимание к прошлому и дух признательности жизненному опыту выражаются посредством художественных приемов. В ходе исследования изучаются метафоры, художественные образы и мотивы в поэзии, а также подчеркивается их духовное и гуманистическое значение.

Ключевые слова: Александр Файнберг, поэзия, философия жизни, эмоциональные переживания, художественный анализ.

Kirish. Aleksandr Faynberg — O'zbekiston adabiy muhitida faol ijod qilgan shoir va tarjimon, rus tilida ijod qilgan bo'lsa-da, uning ruhiyati va badiiy qarashlari O'zbekiston madaniyati bilan chambarchas bog'liqdir. Shoir ijodining asosiy mavzularidan biri — inson ruhiyati, hayotiy kechinmalar, vaqt va o'tgan lahzalarga munosabatdir. Tahlil qilinajak she'rda shoir hayotning o'tkinchi tabiati, inson quvonch

va qaygʻulari, shuningdek, ruhiy oʻsish va oʻz-oʻzini anglash motivlarini chuqur badiiy obrazlar orqali ifodalaydi. Mazkur maqola maqsadi — ushbu sheʼr asosida Faynberg ijodida hayot falsafasi va ruhiy kechinmalarni ilmiy tahlil qilishdir.

Quvonchni ham, qaygʻuni ham qoʻy,
Ortingga bir qarama – oʻtgin.
Neki boʻlgan boʻlsa – unutmang,
Xayolingda roʻyolarni suy.

satrlarida shoir hayotiy kechinmalarni qabul qilish va ularni ortda qoldirish zarurligini taʼkidlaydi. Quvonch va qaygʻuni birdek his qilish, lekin ularni ortga qoʻyish orqali inson ruhiyati erkinlashadi. Shu bilan birga, Faynberg hayotdagi xotiralarni, tajribalarni qadrlash va ulardan saboq olish gʻoyasini ilgari suradi. Bu bayt hayot falsafasining badiiy talqinini ochib beradi.

Achinmagin oʻtar shuhratga,
Kuzgi titroq kezgan oʻrmonda
Koʻmma berib savol har onda
Bu maysalar, toshni hasratga.

Shoir insonning oʻtkinchi shon-sharaf, obroʻ va tashqi muvaffaqiyatlarga nisbatan bagʻrikeng boʻlishi zarurligini ifodalaydi. “Kuzgi titroq” va “maysalar”, “tosh” kabi badiiy tasvirlar inson ruhiyatining nozik kechinmalarini, oʻtkinchi narsalarga ortiqcha bogʻlanmaslikni aks ettiradi. Shu bilan shoir insonni ichki erkinlik va ruhiy tinchlik sari chorlaydi.

Yovshan isli yellarni simir,
Yodingda tut gar shoir boʻlsang –
Bu dunyoda nima bor boʻlsa,
U dunyoda boʻlmaydi, axir.

Shoir tabiat bilan inson ruhiyati oʻrtasidagi uygʻunlikni koʻrsatadi. Yovshan isli yel — ruhni tinchlantiruvchi, xotiralarni yengillashtiruvchi metafora sifatida ishlatilgan. Shu bilan birga, inson hayoti va dunyoviy narsalarning oʻtkinchi ekanligini anglatadi. Bu bayt Faynbergning hayot falsafasini chuqur va badiiy tarzda ochib beradi. Sheʼrda metafora, allegoriya va personifikatsiya keng qoʻllanilgan. “Kuzgi titroq”, “maysalar”, “tosh”, “yovshan isli yellar” kabi obrazlar inson ruhiy kechinmalarini badiiy ifoda qiladi. Bu vositalar orqali shoir oʻquvchiga hayot falsafasi, vaqt va ruhiy uygʻunlikni yetkazadi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur sheʼr Faynberg ijodining badiiy va falsafiy jihatlarini yaqqol namoyon qiladi. Shoir quvonch va qaygʻuni qabul qilish, oʻtkinchi narsalarga ortiqcha bogʻlanmaslik, tabiat bilan ruhiy uygʻunlik va hayot falsafasini badiiy tarzda tasvirlaydi. Faynberg sheʼriyatida bunday motivlar oʻquvchini ichki ruhiy oʻsish, insoniy qadriyatlarni qadrlash va hayotiy tajribalarni anglash ruhida

tarbiyalaydi. Shu jihatdan u ko'p millatli O'zbekiston adabiyotida gumanistik ruhga ega muhim vakil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alexander Fainberg "An Attempt to Autobiography".
2. Aleksandr Faynberg. Qoralanmaga qasida. - Toshkent: Adabiyot, 2021.
3. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-she-riyati/rus-sheriyati/aleksandr-faynberg-1939-2009>
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr_Faynberg